

“HUJUM” KOMPANIYASINING MINTAQA HAYOTIGA TA’SIRI**Oxunjonov Boburjon Ilhomjon o‘g‘li***O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**Farg‘ona akademik litseyi tarix fani yetakchi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sovet davrida O‘zbekiston SSR da olib borilgan “Hujum kompaniyasi” boshlanishi, sabablari hamda oqibatlari va uning mintaqqa hayotiga ta’siri haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *“Hujum”, Yangi iqtisodiy siyosat (YaIS), paranji, chachvon.*

Yurtimizda oxirgi yillarda olib borilayotgan ayollar faolligi borasidagi siyosati ularning bola tarbiyasidagi ishtiroki, oiladagi mavqei, burch va vazifalari, xotin-qizlar ta’limi samaradorligini oshirishga doir islohotlarda chuqur ishtiroki, jamiyatda va oilada mehnat taqsimoti va uning ma’naviy negizlari, madaniy-maiiy turmushini yaxshilash borasidagi faoliyati, bo’sh vaqtni maqsadga muvofiq tashkil etish, kitobxonligini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hayotga tatbiq etishning samaradorligini oshirishdan iboratdir. Respublikamizda huquqiy davlat va demokratik jamiyatni barpo etish yo’lida ijtimoiy harakat olib borilayotgan bugungi kunda fuqarolar, shu jumladan, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish dolzarb vazifadir. Buning uchun esa ayollar borasidagi siyosat va uning tarixini izchil tadqiq etish kun tartibidagi muhim mavzulardan biri sifatida ko‘rish zarur. XX asrning 20-yillarida Turkiston xotin-qizlarning hayoti musulmonchilnk qonuniyatlari va an’analari asosiga qurilgan edi. Shu bois, sovet hukumati o‘rnatilgach, qisqa vaqt ichida ularni yemirib, mutlaqo yangi an’analarni, yangi ayolni va unga muvofiq ravishda xotin-qizlarning yaralmishi haqidagi qotib qolgan o‘y-fikrlardan butunlay xoli bo‘lgan erkaklar avlodini yaratish mumkin emasdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, haqli bir savol tug‘ilishi tabiiy: Turkistonda “Hujum” kompaniyasini o‘tkazish kerakmidi? Bu harakat tarixan o‘zini oqladimi? Uni insonlar ongidagi buyuk o‘zgarish deb hisoblash mumkinmi? Mustaqillikning dastlabki yillarida ayrim tadqiqotchilar ayollarimiz boshiga tushgan butun ko‘rgiliklarning bosh sababchisi qilib “Hujum”ni ko‘rsatishdi. Bu esa qanchalik to‘g‘ri? degan savol tug‘iladi. Ma’lumki, Oktyabr to‘ntarishidan keyin Turkistonda xotin-qizlar

tenghuquqliligi, balog‘atga yetmagan qizlarni turmushga uzatish kabi masalalar bo‘yicha bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. XX asr 20-yillarda tashkil etilgan xotin-qizlar bo‘limlari bu jabhada, umuman olganda, to‘g‘ri ishlarni amalga oshirdi. Faollar masalaga juda ehtiyotkorlik bilan yondashdilar, har bir xonadonga kirib, tushuntirish ishlari

olib bordilar, maxsus xotin-qizlar klublari, artellar, do‘konlar tashkil etdilar, bu yerlarda xotin-qizlar hech handay qarshiliksiz tikish, savdo-sotiq, o‘qish-yozish bilan shug‘ullandilar¹. Barcha tadbirlar xotin-qizlar turmush tarziga xos xususiyatlarga, milliy an‘analarga mutanosib holda olib borildi. O‘sha paytlarda hech kim paranji tashlash haqida gap-so‘z yuritmasdi. Faollar ko‘proq ishontirish usuliga suyanishardi. Shunga ko‘ra, xotin-qizlar huquqini ta‘minlash, ularni yaratuvchilik va jamoatchilik ishlariga jalb etish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi. Ayollar mehnati oila byudjetiga munosib hissa ho‘shgani, fuqarolarga qo‘l kelgani ko‘plab maanbalarda o‘z ifodasini topdi. Lekin sovet hokimiyati bu boradagi ishlar sekin borayotganidan qoniqmadi. Unn sun‘iy ravishda tezlashtirish maqsadida “Hujum”ga zarbdor safarbarlik xususiyatini berdi, ruhiy omillarni mutlaqo hisobga olmadi. Holbuki, xotin-qizlarning paranjisiz yurishiga o‘sha davrdagi ijtimoiy muhit to‘g‘ri kelmasdi: unga partiya-sovet xodimlari ham, oddiy xalq ham tayyor

emasdi. 1927-yilga kelib, O‘rta Osiyo davlatlarida faoliyat olib borayotgan partiya organlarida 40 ming a‘zo va a‘zolikka nomzod bor edi, shundan 25 mingi mahalliy millat vakillari edi. Ular “Hujum”ning oldingi saflarida borishi va odamlarga namuna ko‘rsatishi ko‘zda tutilgan edi². Amalda esa o‘z xotinlarini bugun paranji yopiladigan joylarga yetaklab kelishardi-da, ertasiga yana paranji yopinishga majburlardilar. Shunga ko‘ra, O‘rta Osiyo byuro- sining XIV Plenumi (1927 yil oktyabr) partiya xodimlariga «maishiy jinoyati» uchun hatto partiya safidan o‘chirishgacha bo‘lgan jazoni qo‘llash bo‘yncha qaror sabul qiladi.

Mazkur masala yuzasidan partiya yo‘l-yo‘riqlarining bajarilishi, ta‘bir joiz bo‘lsa, “tozalash”ning borishi tekshirilganda, qiziq ma‘lumotlar aniqlanadi. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi 258 mas‘ul xodimdan 18 tasi sovet hukumati o‘rnatilgandan keyin qalin puli berib uylangani, uchtasi meros sifatida xotin olgani, ikkitasi qo‘sh xotinli ekanligi ayonlashadi. Ularning hammasi, hatto, inqilobga qadar qalin to‘laganlar ham partiya tomonidan jazolanadilar. Komissiya Qorako‘l tumanida bo‘lganida, kommunist O‘lmasqulovga savodsizlnkni emas, balki diniy bid‘atlarni tugatishni topshiriq qilib beradi.

Mana shunday tekshiruvlardan so‘ng ba‘zi bir partiya tashkilotlarida mas‘ul xodimlarning ayollari darrov partiya safiga kirish uchun arizalar bera boshlaydilar. “Hujum” shu qadar safarbar tus olganki, hatto xotin-qizlar yuzini ochish bo‘yicha O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida sotsialistik musobaqa ham o‘tkazilgan. Musobaqaga ikki mamlakat sud organlari ham qo‘shildi. Ular chiqargan qarorlarning bir bandida shunday jumla ham bor edi: “Ajrash ishlarini bir haftadan kechiktirmay ko‘rib chiqilsin. Gap shundami, “Hujum” boshlanishi

bilan sudlarga ajralshi xususida ko‘plab arizalar tusha boshlagan. Balog‘atga yetmaganlarni erga uzatish, qalin berish, qizlarnng ruxsatisiz nikoh o‘qitishni ta‘qiqlagan yangi qonunlardan madad kutayotgan ayollar sud idoralariga o‘zlarini mutaassib yoki keksa

erlaridan ajratishni so‘rab ariza bergan. Sud organlari xuddi ana shularni dastak qilib olib, yuqoridogn singari mantiqsiz qaror chiqarganlar.

Arxiv hujjatlarda 1927-1928 yillari birgina O‘zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, qishloq, rayon kengashlarning a‘zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudirlari hayotdan judo bo‘lishganligi qayd etiladi. Albatta, bu ko‘rsatkich to‘liq emas. “Hujum” ning oddiy ishtirokchilaridan qanchasi o‘lgani yoki mayib-majruh bo‘lgani, bu fojialar uchun mas’uliyat va javobgarlikni kim o‘z zimmasiga olgani noma’lum. Ammo “Hujum” dastlab katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi. Bu yutuqlar faqat “Hujum” ning ta’sir kuchi bilangina bog‘liq emasdi. Yohud ba’zi bir sovet sharqshunoslar ta’kidlaganlaridek, ayollarning faolligi faqat yopinchiq ichida o‘tayotgan umrga nisbatan norozilik tufayli emasdi. Buning o‘ziga xos sababi ayollarimiz tabiatida adolatsizlikka qarshi kurash tuyg‘usining mavjudligi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аббасова Л., Рахимбабаева Т. Участие женщин в культурном строительстве Узбекистана в годы войны // Общественные науки в Узбекистане. – Тошкент, 1975. – №5.
2. Айтматов Чингиз. Қояда қолган кўз ёшлар // Жаҳон адабиёти. 1997. – №2.
3. Алимова Д.А. Решение женского вопроса в Узбекистане (1917-1941 гг). – Ташкент, 1987.
4. Аминова Р.Х. Совет шарқи ва хотин-қизлар. Совет шарқи таракқиётининг нокапиталистик йўли ва хотин-қизларнинг озодликка чиқиши. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон, Правда Востока ва Ўзбекистони Сурх нашриёти, 1964
5. Нишоновна Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари ва муаммолари // Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти хабарлари. 2017. №1.
6. Собирова Д. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40–80-йиллари). Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2010.
7. Тошбоева Т.Х. Ўзбек аёли ўтмишда ва ҳозирги кунда. – Тошкент, 1987
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000.
9. Ibragimova Sarvinoz Ne’matjon qizi. O‘zbekistonda “Hujum” kompaniyasining amalga oshirilishi: yutuq va muammolar (Farg‘ona viloyati misolida) magistrlik dissertatsiyasi.